



VAKOLATLI IQTISODIY OPERATOR MAQOMINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI: BOJXONA TO'LOVLARINI KECHIKTIRIB TO'LASH IMTIYOZIDAN FOYDALANISH TAHLILI

Shukurov Orifjon

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi

ORCID: 0009-0006-7225-9259

shukurov.orifjon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasida 2019-yildan joriy etilgan vakolatli iqtisodiy operator (VIO) institutining muhim moliyaviy imtiyozlaridan biri – bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash mexanizmidan foydalanish dinamikasini empirik jihatdan o'rganadi. 2021-2025-yillar davomida 96 ta VIO maqomiga ega (faol) korxonaning bojxona yuk deklaratsiyalaridagi ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, kechiktirib to'langan bojxona to'lovlari summasi ulushi 2021-yildagi 9,95 foizdan 2023-yilga kelib 33,66 foizgacha o'sdi, so'ngra 2025-yilda 24,51 foizda barqarorlashdi. Toifaviy kesimda yaqqol tafovut aniqlandi: I toifali firmalar 9,9%, yuqori toifali firmalar (I va II, II, III toifalar) esa 28,9% ulushda kechiktirib to'lash imtiyozidan foydalanmoqda. Tadqiqot VIO maqomining vaqt va yo'lak samarasi bilan bir qatorda muhim moliyaviy kapital boshqaruvi vositasi ekanini empirik jihatdan asoslaydi hamda VIO institutining amaliy samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: vakolatli iqtisodiy operator, bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash, bojxona to'lovi, moliyaviy imtiyoz, aylanma kapital, bojxona ma'muriyatchiligi, savdoni osonlashtirish, toifaviy tafovut.

ФИНАНСОВАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СТАТУСА УПОЛНОМОЧЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОПЕРАТОРА: АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛЬГОТЫ ПО ОТСРОЧКЕ УПЛАТЫ

Шукуров Орифжон

Таможенный комитет при Министерстве экономики и финансов

Аннотация. Настоящее исследование посвящено эмпирическому изучению динамики использования одного из значимых финансовых преимуществ института уполномоченного экономического оператора (УЭО), внедрённого в Республике Узбекистан с 2019 года, а именно механизма отсрочки уплаты таможенных платежей. Анализ, проведённый на основе данных грузовых таможенных деклараций 96 действующих предприятий, имеющих статус УЭО, за 2021–2025 годы, показал, что доля сумм таможенных платежей, уплаченных с отсрочкой, увеличилась с 9,95% в 2021 году до 33,66% в 2023 году, после чего стабилизировалась на уровне 24,51% в 2025 году. В разрезе категорий выявлена выраженная дифференциация: предприятия I категории используют льготу по отсрочке уплаты таможенных платежей на уровне 9,9%, тогда как предприятия более высоких категорий — I и II, II, III категорий — на уровне 28,9%.

Результаты исследования эмпирически подтверждают, что статус УЭО выступает не только инструментом сокращения временных затрат и повышения эффективности прохождения таможенных коридоров, но и важным механизмом управления финансовым капиталом. На основе полученных результатов в исследовании выдвинуты конкретные предложения, направленные на повышение практической эффективности института УЭО.

Ключевые слова: уполномоченный экономический оператор, отсрочка уплаты таможенных платежей, таможенный платёж, финансовая льгота, оборотный капитал, таможенное администрирование, упрощение торговли, категориальная дифференциация.

FINANCIAL EFFECTIVENESS OF AUTHORIZED ECONOMIC OPERATOR STATUS: AN ANALYSIS OF THE USE OF THE DEFERRED PAYMENT BENEFIT

Shukurov Orifjon

Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance

Abstract. *This study empirically examines the dynamics of using one of the key financial benefits of the Authorized Economic Operator (AEO) institution, introduced in the Republic of Uzbekistan in 2019, namely the mechanism for deferred payment of customs duties. The analysis, based on customs cargo declaration data of 96 active enterprises with AEO status for the period 2021–2025, shows that the share of deferred customs payments increased from 9.95% in 2021 to 33.66% in 2023, before stabilizing at 24.51% in 2025. A clear categorical differentiation was identified: Category I firms used the deferred payment benefit at the level of 9.9%, whereas higher-category firms — Categories I and II, II, and III — used it at the level of 28.9%. The study empirically demonstrates that AEO status functions not only as an instrument for reducing clearance time and improving the efficiency of customs corridor procedures, but also as an important tool for financial capital management. Based on the findings, the study puts forward specific proposals aimed at enhancing the practical effectiveness of the AEO institution.*

Keywords: *authorized economic operator, deferred payment of customs duties, customs payment, financial benefit, working capital, customs administration, trade facilitation, categorical differentiation.*

Kirish.

Xalqaro savdo sharoitida bojxona ma'muriyatchiligi faqat tovarlarning chegaradan o'tish tezligini ta'minlovchi mexanizm emas, balki tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim institutsional omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda. An'anaviy bojxona tartibotlarida importchi va eksportchi korxonalar tovarlarni rasmiylashtirish jarayonida bojxona to'lovlarini darhol amalga oshirishga majbur bo'ladi. Bu esa korxonaning aylanma mablag'lari harakatini cheklaydi, likvidlikka bosimni kuchaytiradi hamda tashqi savdo operatsiyalari bilan bog'liq moliyaviy xarajatlarning ortishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan vakolatli iqtisodiy operator instituti tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Vakolatli iqtisodiy operator dasturi Jahon bojxona tashkilotining SAFE standartlari doirasi tamoyillariga asoslangan holda shakllangan bo'lib, O'zbekistonda 2019-yildan boshlab rasman joriy etilgan. Mazkur institut doirasida belgilangan talablarga javob beruvchi "ishonchli" tadbirkorlik subyektlariga bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida bir qator soddalashtirishlar taqdim etiladi. Jumladan, yashil yo'lakdan ustuvor tartibda foydalanish, bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash, tovarlarni o'z omborida saqlash va bojxona to'lovlari ta'minoti bo'yicha yengillashtirilgan tartiblardan foydalanish imkoniyati shular jumlasidandir.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda vakolatli iqtisodiy operator dasturining samaradorligi ko'pincha bojxona rasmiylashtiruv vaqtining qisqarishi, xavf darajasining pasayishi yoki yashil yo'lak ulushining ortishi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Biroq ushbu maqomning korxonalar moliyaviy holatiga ta'siri, xususan, kechiktirib to'lash imtiyozini orqali aylanma kapitalni boshqarishdagi roli yetarli darajada empirik tahlil qilinmagan. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda VIO dasturining amaliy rivojlanishi so'nggi yillarda sezilarli faollashdi. 2021-yilda VIO maqomiga ega operatorlar soni 28 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 96 taga yetdi. Bu esa qisqa davr ichida mazkur institutga bo'lgan qiziqish va undan foydalanish ko'lami ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, VIO maqomiga ega korxonalar tomonidan kechiktirib to'lash imtiyozidan foydalanish hajmi ham yildan-yilga o'sib borgan. Biroq ushbu o'sishning dinamikasi, operator toifalari bo'yicha farqlanishi hamda uning tizimli mazmuni hozirga qadar alohida empirik tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha yoritilmagan.

Mazkur tadqiqot quyidagi asosiy savolga javob berishga qaratilgan: O'zbekistondagi VIO maqomiga ega korxonalar bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash imtiyozidan qay darajada foydalanmoqda, ushbu foydalanish darajasi operator toifalari kesimida qanday farqlanadi va vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarish tendensiyasiga ega?

Tadqiqotning ilmiy-amaliy hissasi uch yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, maqolada O'zbekistonda VIO maqomiga ega korxonalar tomonidan bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash imtiyozidan foydalanish deklaratsiya darajasidagi ma'lumotlar asosida empirik baholanadi. Ikkinchidan, VIO toifalari o'rtasida mazkur moliyaviy imtiyozdan foydalanishdagi tafovutlar aniqlanadi. Uchinchidan, olingan natijalar asosida VIO institutining moliyaviy samaradorligini oshirish va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

VIO dasturlari va savdoni osonlashtirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar so'nggi o'n yil ichida sezilarli darajada kengaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati bojxona tartib-taomillari vaqti yoki savdo hajmiga e'tibor qaratib, moliyaviy yo'nalishlarni chetlab o'tadi.

G.McLinden va E.Fanta (2011) WCO SAFE doirasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda VIO maqomining asosiy samarasi bojxona rasmiylashtiruv vaqtini qisqartirish orqali namoyon bo'lishini aniqladi. Biroq ular kechiktirib to'lash imtiyozini moliyaviy ko'rsatkich sifatida tahlil qilmagan.

Kim, C.B., Chung, I.S. va Joo (2019) Koreya bojxona ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tarkibiy tenglamalar tahlilida VIO MRA ning savdo hajmiga ijobiy ta'sirini ko'rsatganini tahlil qilishgan. Tadqiqot shuni ta'kidladiki, ta'sir logistika hamkorlik darajasiga bog'liq – bu bizning toifaviy tafovut gipotezamizning nazariy asosini tashkil etadi.

O.Nkxahle va K.Baldavoo (2025) Janubiy Afrikada VIO dasturini baholab, muvofiqlik ko'rsatkichlarining yaxshilanganini aniqlashgan. Biroq kechiktirib to'lash imtiyozidan foydalanish darajasi tahlil qilinmagan.

B.Bachtar va Inayati (2021) Indoneziyaning Tanjung Priok bojxonasida VIO dasturini o'rganishgan. Korporativ kafolat imtiyozini muhim moliyaviy ustunlik sifatida ro'l o'ynashini aniqlashgan. Tahlil natijasida, to'lovni kechiktirib amalga oshirish imkoniyati korxonalar aylanma kapitalini saqlash va likvidlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynagan. Ushbu topilma bizning tadqiqotimizning markaziy gipotezasini nazariy jihatdan asoslaydi.

Grainger, Knight va Tansey (2020) ASEAN mamlakatlari bo'yicha olib borgan tadqiqotida VIO dasturining amaliy samaradorligi ta'minot zanjiridagi hamkorlik darajasi bilan

bevosita bog'liq ekanini asoslab bergan. Mazkur yondashuv ushbu maqola uchun muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi, chunki yuqori toifali VIO firmalar, odatda, murakkabroq va ko'p bosqichli ta'minot zanjiri munosabatlariga ega bo'ladi.

Umumiy holda, mavjud adabiyotlarda VIO dasturining vaqt va savdo samarasi yaxshi o'rganib chiqilgan. Biroq VIO maqomiga ega korxonalarda moliyaviy imtiyozlardan foydalanish, jumladan kechiktirib to'lash amaliyotining vaqt bo'yicha o'zgarishi va toifalar kesimidagi tafovutlar adabiyotlarda nisbatan kam o'rganilgan yo'nalish sifatida saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot bojxona xizmatlarining tashqi savdo jarayonlaridagi iqtisodiy ahamiyatini hamda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashdagi institutsional rolini baholashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi amaliy natijaga yo'naltirilgan yondashuv hamda tizimli tahlil tamoyillari asosida shakllantirildi. Tadqiqot dizayni sifat va miqdoriy usullar uyg'unligiga tayangan holda ishlab chiqilib, unda ilmiy adabiyotlar, rasmiy statistik ma'lumotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar kompleks tahlil qilindi. Axborot bazasi sifatida asosan ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari, davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlar, Bojxona qo'mitasining rasmiy axborotlari va tahliliy materiallari, shuningdek, so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning asosiy manbalari sifatida o'rganildi. Ilmiy manbalarni tanlashda mavzuga bevosita aloqador bo'lgan xorijiy va mahalliy tadqiqotlar saralanib, funksional yo'naltirilgan bibliografik qidiruv usulidan foydalanildi. Empirik tahlil bosqichida rasmiy statistik ma'lumotlar asosida deskriptiv-statistik, dinamik va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Tashqi savdo oqimlarining tarkibiy o'zgarishlari, ayrim yo'nalishlarda konsentratsiya darajasi hamda bojxona ma'muriyatchiligi bilan bog'liq ehtimoliy xatarlarni asoslashda tarkibiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv bojxona xizmatlarining tashqi savdo samaradorligi, fiskal barqarorlik va tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini tizimli baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmi tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun muhim moliyaviy yengilliklardan biri hisoblanadi. Import operatsiyalarida bojxona to'lovlarining tovar rasmiylashtiruvi jarayonida darhol undirilishi korxonaning aylanma mablag'lariga sezilarli bosim yaratadi. Shu jihatdan, to'lov muddatini ma'lum davrga uzaytirish korxonaning likvidligini saqlash, pul oqimlarini barqaror boshqarish va tashqi savdo operatsiyalarini moliyaviy jihatdan yengillashtirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksida bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash tartibi alohida belgilangan. Kodeksning 329-moddasiga ko'ra, bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati bojxona to'lovlarining bir yoki bir nechta turiga, shuningdek, to'lanishi lozim bo'lgan summaning butun hajmiga yoki uning bir qismiga nisbatan berilishi mumkin. Mazkur imkoniyatni berish to'g'risidagi qaror zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab besh ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda bojxona organi tomonidan qabul qilinadi.

Ushbu mexanizmning moliyaviy qiymati, ayniqsa, foizlar tartibida yaqqol namoyon bo'ladi. Bojxona kodeksining 332-moddasida umumiy tartibda kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan har bir kun uchun Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foiz undirilishi belgilangan. Shu bilan birga, ayrim hollarda, jumladan, ushbu imkoniyat o'n to'rt kalendar kungacha berilganda (Bojxona kodeksida nazarda tutilgan shartlar bajarilganida), foizlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

So'nggi yillarda bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-250-sonli Farmonida 2027-yilga qadar bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini takomillashtirish bo'yicha asosiy maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Hujjatda tovarlarni chegaradan eksport va importda rasmiylashtirish hajmini ikki barobarga oshirish, bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash asosida tovarlarni erkin muomalaga chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish hamda vakolatli iqtisodiy operatorlar sonini 200 tadan oshirish vazifalari nazarda tutilgan.

Shuningdek, mazkur Farmonda 2026-yil 1-martdan tovarlarni chegara o'tkazish punktiga yetib kelguniga qadar dastlabki deklaratsiyalash orqali erkin muomalaga chiqarish bojxona rejimiga joylashtirishda bojxona to'lovlarini bo'lib-bo'lib yoki kechiktirib to'lashda 14 kungacha foizlar hisoblanmaslik amaliyotini joriy etish belgilangan. Bu holat kechiktirib to'lash mexanizmining nafaqat amaldagi bojxona tartibotlarida, balki yaqin istiqboldagi islohotlarda ham ustuvor moliyaviy yengillik sifatida qaralayotganini ko'rsatadi.

Demak, kechiktirib to'lash imtiyozini VIO maqomining muhim moliyaviy komponenti sifatida korxonalar bojxona to'lovlari yukini vaqt bo'yicha qayta taqsimlash, aylanma mablag'lardan samaraliroq foydalanish va import operatsiyalarida likvidlikni saqlash imkonini beradi. Shu sababli keyingi tahlilda VIO maqomiga ega korxonalar tomonidan mazkur imtiyozdan foydalanish dinamikasi, uning yillar bo'yicha o'zgarishi va operator toifalari kesimidagi tafovutlari empirik ma'lumotlar asosida baholanadi.

1-jadval

VIO maqomiga ega korxonalar kechiktirib to'lash dinamikasi, 2021–2025 yillar


Yil	Jami ByuD soni	Jami to'langan bojxona to'lovlari (trln so'm)	Kechiktirib to'langan summa (trln so'm)	Ulush (%)	Ulush o'zgarishi (pp)	↑↓
2021	29 628	2,810	0,279	9,95%	-	
2022	36 966	3,777	0,771	20,42%	+10,47	↑
2023	45 499	3,763	1,266	33,66%	+13,24	↑
2024	52 285	4,548	1,240	27,27%	-6,39	↓
2025	45 264	4,874	1,194	24,51%	-2,76	↓

Manba: Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Yuqoridagi 1-jadvalda 2021–2025-yillar davomida VIO maqomiga ega bo'lgan korxonalar tomonidan to'langan jami bojxona to'lovlari va shundan kechiktirib amalga oshirilgan summalar keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kechiktirib to'langan summa ulushi 2021-yildagi 9,95 foizdan 2023-yilga kelib 33,66 foizgacha jadal o'sdi. Bu davrda umumiy deklaratsiyalar soni ham 29 628 tadan 45 499 taga o'sdi, ya'ni o'sish sof aylanma ko'payishi bilan bog'liq emas - balki imtiyozdan foydalanish intensivligi oshganligi bilan izohlanadi. 2023-yildan so'ng ulush pasaya boshladi: 2024-yilda 27,27 foiz, 2025-yilda esa 24,51 foizgacha tushdi. Ushbu pasayishning ikki izohi bor. Birinchidan, dasturga yangi kiruvchi I toifali firmalar soni 2025-yilda keskin oshishi (50 ta) - ular imtiyozni endi o'zlashtirib bormoqda va shuning uchun ulush o'rtachani past darajaga tortmoqda. Ikkinchidan, ba'zi yuqori toifali firmalar moliyaviy rejalashtirish yetukligiga erishib, kechiktirib to'lash o'rniga muddatida to'lashni afzal ko'rmog'da.

VIO maqomining moliyaviy samaradorligini baholashda operator toifalari bo'yicha beriladigan soddalashtirishlar alohida ahamiyatga ega. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-

avgustdagi 500-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda VIO maqomi bojxona operatsiyalarida soddalashtirilgan tartib-taomillardan foydalanish huquqini beruvchi maxsus maqom sifatida belgilangan. Nizomda VIO guvohnomasining uch turi ajratilgan: bojxona masalalari bo'yicha operator (I), xavfsizlik masalalari bo'yicha operator (II) hamda bojxona va xavfsizlik masalalari bo'yicha operator(I&II). Bojxona masalalari bo'yicha operator guvohnomasi Nizomning 19-bandida, xavfsizlik masalalari bo'yicha operator guvohnomasi 20-bandida, bojxona va xavfsizlik masalalari bo'yicha operator guvohnomasi esa 21-bandida nazarda tutilgan soddalashtirishlardan foydalanish huquqini beradi.



2-rasm. I toifa hamda II va III toifa birgalikda: kechiktirib to'lash taqsimoti, 2025-yil

Manba: Muallif tomonidan Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan

Toifalar o'rtasidagi farq shundaki, I toifa bojxona to'lovlarini 30 kalendar kunigacha kechiktirib to'lash yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkonini bersa, yuqori toifalar kengroq 60 kalendar kunigacha mazkur imtiyozdan foydalanishlari ko'rsatib o'tilgan.

VIO dasturining ichki dinamikasini chuqurroq tushunish uchun 2025-yil ma'lumotlari toifa kesimida tahlil qilindi. 2-rasmda ushbu taqsimot keltirilgan. 2-rasmdan ko'rinadiki, toifaviy tafovut juda yaqqol namoyon bo'lmoqda. I toifaga ega korxonalar (53 ta) 1,130 trln so'm to'laganidan 0,111 trln (9,9%) ni kechiktirib amalga oshirgan. Yuqori toifalar (I va II toifa, II toifa va III toifa birgalikda, 39 ta korxonalar) esa 3,743 trln so'mdan 1,083 trln (28,9%) ni kechiktirib to'lagan.

Bu farq statistik jihatdan juda muhim: yuqori toifali korxonalar I toifaga nisbatan 3 baravar ko'proq ulushda kechiktirib to'lash imtiyozidan foydalanmoqda. Ushbu natija Kim va boshq. (2019) tomonidan aniqlangan xatti-harakat gipotezasi bilan uyg'unlashadi: vaqt o'tishi bilan tajriba ortgan va institutlarga chuqurroq integratsiyalashgan korxonalar imtiyozlardan samaraliroq foydalanadi.

Toifalar ichida eng yuqori kechiktirib to'lash ulushi II toifada kuzatilmoqda (34,1%), I va II toifada esa 30,0%. Uchinchi toifada (18,5%) bu ko'rsatkich pastroq. Bu ehtimol III toifali firmalarning muvofiqlik talablarini qat'iy bajarishga ko'proq yo'naltirilganligi, ya'ni to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish ular uchun muhim muvofiqlik ko'rsatkichi ekanligini aks ettiradi.

Umumiy holda, 2025-yilda kechiktirib to'langan to'lovning 90,7 foizi (1,083/1,194 trln) yuqori toifali firmalar tomonidan amalga oshirilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, kechiktirib to'lash imtiyozi dasturda nisbatan uzoq muddatli va moliyaviy jihatdan yetukroq korxonalar uchun muhim kapital boshqaruv vositasiga aylangan.

Kechiktirib to'lash imtiyozining moliyaviy ahamiyatini quyidagi misolda ko'rish mumkin. Agar korxonaga o'rtacha 1 mlrd so'mlik bojxona to'lovini 30 kun kechiktirsa va joriy bank kreditlash stavkasi yiliga 22–25 foiz bo'lsa, bir oylik moliyaviy tejam taxminan 18–21 mln so'mni tashkil etadi. Yillik bazis bo'yicha bu 200–250 mln so'm – kichik va o'rta korxonaga uchun sezilarli summa. Yuqori toifali firmalar uchun ushbu tejam yanada katta: 1,083 trln so'mlik kechiktirilgan to'lov asosida hisoblaganda bir oylik tejam 19–22 mlrd so'mdan oshadi.

Bu tahlil Bachtiar va Inayati (2021) xulosasini O'zbekiston misolida tasdiqlaydi: VIO maqomi moliyaviy samarasi nuqtai nazaridan ham juda muhim. To'lovni kechiktirish korxonaga qimmat bank kreditisiz aylanma kapital saqlash imkonini beradi, bu esa ayniqsa likvidlik muammolari kuchaygan davrda (masalan, COVID-19 davrida yoki xalqaro bozorlarda narx o'zgaruvchanligi kuchaygan paytda) hal qiluvchi ustunlikka aylanishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda vakolatli iqtisodiy operator maqomiga ega korxonalar tomonidan bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash imtiyozidan foydalanish holati 2021–2025-yillar ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, VIO maqomi faqat bojxona rasmiylashtiruv jarayonini tezlashtirish yoki nazorat tartiblarini soddalashtirish vositasi emas, balki korxonalar uchun muhim moliyaviy yengillik ham hisoblanadi.

Tahlil davomida bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash imtiyozidan foydalanish yillar davomida o'sib borgani va keyingi davrda nisbatan barqaror darajaga kelgani aniqlandi. Bu holat VIO maqomiga ega korxonalar mazkur imkoniyatni bosqichma-bosqich o'zlashtirib, uni tashqi savdo operatsiyalarida moliyaviy resurslarni boshqarish vositasi sifatida qo'llayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuqori toifalarga mansub korxonalarda ushbu imtiyozdan foydalanish darajasi yuqoriligi VIO tizimida toifaviy farqlanish amalda ham namoyon bo'layotganini anglatadi.

Kechiktirib to'lash mexanizmining iqtisodiy ahamiyati shundaki, u korxonaga bojxona to'lovlarini darhol amalga oshirmasdan, ma'lum muddat davomida aylanma mablag'larni saqlab turish imkonini beradi. Bu esa korxonaning likvidligini qo'llab-quvvatlash, pul oqimlarini barqarorlashtirish va tashqi savdo operatsiyalari bilan bog'liq moliyaviy yukni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur imtiyoz VIO maqomining amaliy qiymatini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida VIO institutini yanada takomillashtirishda bir necha yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Avvalo, VIO maqomiga ega korxonalarga mavjud imtiyozlardan samarali foydalanish bo'yicha tushuntirish va amaliy ko'mak berish ishlarini kuchaytirish zarur. Bundan tashqari, korxonalarining ishonchlilik darajasi, faoliyat tajribasi va toifasidan kelib chiqib, kechiktirib to'lash shartlarini yanada moslashuvchan qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish mumkin. Shuningdek, ushbu imtiyozdan foydalanish holatini muntazam monitoring qilib borish VIO dasturining real samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari VIO maqomi O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash, bojxona tartibotlarini soddalashtirish va korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim institut sifatida shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Kelgusida VIO maqomiga ega bo'lmagan korxonalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazish ushbu institutning real iqtisodiy samarasini yanada chuqurroq baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/References:

Bachtiar, B. K. va Inayati (2021). Analysis of Authorized Economic Operator Policy in the Tanjung Priok Customs and Excise Service Office: Strengths and Weaknesses. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, 558, 310–317.

Grainger, A., Knight, L. va Tansey, O. (2020). Trade facilitation and customs modernisation in ASEAN. *Journal of World Trade*, 54(3), 445–468.

Jahon bojxona tashkiloti (2023). *WCO SAFE standartlari doirasi (qayta ko'rib chiqilgan nashr)*. Bryussel: WCO.

Kim, C.B., Chung, I.S. va Joo, H.-Y. (2019). Effects of AEO-MRA on the performance of exporters and importers in Korea. *Journal of Korea Trade*, 23(3), 78–93.

McLinden, G. va Fanta, E. (2011). *Border management modernization*. Washington: World Bank Publications.

Nkhahle, O. va Baldavoo, K. (2025). Evaluating AEO in facilitating trade and improving compliance. *International Journal of Research in Business and Social Science*, 14(9), 201–210.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi (2022). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. lex.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2019). Vakolatli iqtisodiy operator instituti to'g'risida. Toshkent: lex.uz

Xo'jayev, F. E. (2024). MDH mintaqasida transport sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda EOII transport integratsiyasining tashqi omillari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 11(11), 1099–1102.